

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
hududiy xay‘at raisi

M.T. Xakimova



03

2025 y.

«TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori

L. X. Musadjanova



« 4 »

03

2025y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

XAVFSIZ IMMUNIZATSIYA

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlariga uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVChILAR:

G.A. Artikova

Toshkent Shahar Shayxontohur tuman
MKTP Immunolog pediater

Sh.A.Rahimxodjayeva

Respublika o`rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi o`qituvchisi

TAQRIZChILAR:

L.YA Mirzakulova

Toshkent Shahar Shayxontohur tuman
bosh immunolog

M.U. Muxsimova

Respublika o`rta tibbiyot va
farmatsevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi o`qituvchisi

O`quv dasturi Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko`rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 03 2025 y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O`quv dasturi direktorlar kengashida ko`rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 03 2025 y.

bayonnoma № 2

1. Kirish

Mamlakatimizda o`rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O`RQ-637-son bilan tasdiqlangan “Ta’lim to`g`risida”gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil

7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 may 2021 yildagi “O`zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari”

PQ-5117 sonli qarori, O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo`yicha me`yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to`g`risida”gi buyrug`i, O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktyabrdagi 333-sonli “O`rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malaksini oshirish va qayta tayyorlashga qo`yiladigan Davlat talablarini ijrosini ta`minlash to`g`risida”gi buyrug`i ijrosini ta`minlash doirasida yaratilgan.

Dasturda o`quv modulining mazmuni, uni o`zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko`nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e`tiborga olingan. O`quv dasturi “Xavfsiz immunizatsiya” yo`nalishining namunaviy o`quv reja asosida tayyorlangan bo`lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo`ljallangan. Dastur modullarga ajratilgan bo`lib: kasbiy rivojlantirish moduli hamda mutaxassislik modullari bo`yicha ta`lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma`naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog`liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendentsiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to`g`risida ma`lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviylikini, modullar va bo`limlarni ketma-ketligini ta`minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o`quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

Sog`liqni saqlashning birlamchi bo`g`inida faoliyat yurituvchi emlash hamshiralarni bilimlarini zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma`lumotlar bilan ularning malakaviy xarakteristikasiga mos holda oshirish. O`qish natijasida hamshiralarning mavjud kompetentsiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko`nikmalarni egallash.

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o`quv jarayonini modulli tibbiy ta`lim tamoyili bo`yicha, zamonaviy, innovatsion, dalillarga asoslangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma`lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o`quv dasturi bo`yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko`rsatiladigan profilaktik, tashhishlash va davolash uchun kerakli amaliy ko`nikmalarni mustaqil qo`llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- sog`liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me`yeriy hujjatlarni ish faoliyatida qo`llay olishga o`rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko`nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o`rtasida to`g`ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog`lom turmush tarzini qo`llab-quvvatlash, o`sib kelayotgan avlodni sog`lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o`rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko`p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o`rgatish;
- emlash xonasi hamshiralarni ish amaliyotida Prezident farmonlarini, sog`liqni saqlash bo`yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni qo`llay bilishni o`rgatish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirib borish;
- tirik zaiflashtirilgan va o`ldirilgan vaktsinalarni saqlash, tarqatish va hisobdan chiqarishni bilish, nazariy va amaliy mashg`ulotlarda kasbiy mahoratni oshirish;
- immunizatsiya xavfsizligi tamoyillari va sovuqlik zanjirining havfsiz amaliyotiga rioya etishni o`rgatish;
- o`tkazilgan emlashdan so`ng kuzatilishi mumkin bo`lgan nojo`ya reaksiya va asoratlarni bartaraf etishni o`rgatish;
- bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko`rsatish bo`yicha nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarini mukammallashtirish.

1.3. Ta`lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O`quv dastur bo`yicha davolash profilaktika muassasalari emlash hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo`riqnomalariga muvofiq, ya`ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo`lgan hamshiralalar uchun mo`ljallangan.

1.4. O`quv dasturni o`zlashtira olish uchun zarur bo`lgan tinglovchi kompetentsiyasi:

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo`llay oladigan, notiqlik san`atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo`lishi;
- hamshiraning huquqiy me`yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko`nikmalarini amalga oshirish;
- hamshiraning huquqiy ma`suliyatlari, bemor huquqlari, roziligi, rad etishini bilishi;
- aholiga tibbiy yordamni tashkil etishdagi direktiv xujjatlarni o`rganish va me`yoriy hujjatlarni yuritishni bilishi;
- vaktsinalar to`g`risida umumiy tushunchaga ega bo`lishi;

-emlash jarayonida ishlatiladigan sanitariya qoidalari va me'yorlarini bilishi;
-immunizatsiya va uning monitoringini aholi bilan hamkorlikda amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar diagnostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Sog'liqni saqlash tizimining butun dunyo bo'yicha rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, tibbiy kadrlarni tayyorlashda talablarni ishlab chiqishning vazifasi shakl va mazmunan bir xil ko'rinishda mutaxassislarni malaka oshirish tizimini yaratish, bunda tayyorlangan kadrlar sog'liqni saqlash muassasalarida to'liq mustaqil ishlay olishi va kasbiy faoliyat davomida malakasining oshirib borishi, bemorlarga ish joyi va egallagan lavozimiga mos bo'lgan kerakli malakali yordamni ko'rsata oladigan imkoniyatda bo'lishi lozim. Hozirgi vaqtda aksariyat yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish borasida erishilgan yutuqlar zahirida immunoprofilaktika tadbiri salmoqli o'rin tutadi. JSSTning yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, ularni eliminatsiya qilish va ayrim infeksiyalarni likvidatsiya dasturi aynan immunoprofilaktikaga asoslanadi. Emlash xonasi hamshiralarini malakasi oshirish aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan me'yoriy hujjatlardan, shu bilan bir qatorda, immunizatsiya doirasidagi me'yoriy hujjatlar asosida tuzildi.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 soat, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy – an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi: Mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi hamda amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat: Malaka oshirish kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga "Xavfsiz immunizatsiya" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI.

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetentsiyasi:

- hamkasblar, hamshiralalar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish;
- to'g'ri ovqatlanishni targ'ib qilish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshirishi;
- bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish;
- boshqariladigan yuqumli (maqsadli) kasalliklar va immunizatsiya dasturi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish;
- emlash jarayonida ishlatiladigan sanitariya qoidalari va me'yorlari qoidalariga to'liq amal qilish;
- immunizatsiya va uning monitoringini aholi bilan hamkorlikda amalga oshirish;
- epidemiologik nazoratni qo'llash;
- "Har bir xududni qamrab olish" strategiyasi asosida immunizatsiya xizmatini tadbir etish;
- emlashdan keyin emlanganlarni holatini baholash;
- emlash xonasiga tegishli me'yoriy hujjatlarni yuritish;
- hamshiralik parvarishini olib borish;
- o'z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma'naviy-xuquqiy me'yorlarga ko'ra yuritish, konfidensial ma'lumotlar bilan ishlashda tibbiyot etikasi, qonunlar, me'yoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish, tibbiyot sirini saqlash;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg'or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

3.Dastur mazmuni.

3.1 "Havfsiz immunizatsiya" 144 kredit malaka oshirish kursi o`quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg`ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy nashg`ulot	Amaliy nashg`ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati		4			
1.2	Modul: Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari.	6	2	4		
1.3	Modul: Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlari moduli	104	44	60		
2.1	Modul: Immunizatsiya xavfsizligi. Emlash orqali, bartaraf etiladigan kasalliklarga qarshi immunizatsiya dasturi.	18	8	10		
2.2	Modul: Aholi bilan to'g'ri va ishonchli aloqalarni o'rnatish.	14	6	8		
2.3	Modul: Vaksinalarni saqlash yoki yuborish, qo'llash, qo'llashga tayorlash jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar. Vaksinalarni tarqatish va hisobdan chiqarish.	22	8	14		
2.4	Modul: Immunizatsiya jarayonini tahlil qilish va kuzatish.	14	6	8		
2.5	Modul: Epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va monitoringi. Epidemiologik nazorat turlari.	18	8	10		
2.6	Modul: Har bir xududni qamrab olish va Etkazib olish strategiyalari asosida immunizatsiya xizmatini tadbiq etish.	12	6	6		
2.7	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda bfiirinchi yordam ko'rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4	-		4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

”Havfsiz immunizatsiya” kursi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul: Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma‘lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma‘lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma‘lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma‘lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul: Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalanish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4.Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika havfsizligi.

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktyabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6099-sonli ahamiyati tushintirish.

hayot sifati tushunchalarini; salomatlik va sog'lom turmush tarzining, sportning, shaxsiy gigiyenaning unga ta'siri, ahamiyatini; sog'lom turmush tarzining oila a'zolari salomatligiga ta'sirini; sog'lom turmush tarzining tarkibiy qismlarini; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2022 yil 27 iyuldagi «To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi» xonalarini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risidagi 214-sonli buyrug'i va ushbu xonalarning vazifalari to'g'risida mal'lumot berish.

2.1.Modul: Immunizatsiya xavfsizligi. Emlash orqali, bartaraf etiladigan kasalliklarga qarshi immunizatsiya dasturi.

“Xavfsiz immunizatsiya”ga kirish. Yuqumli kasalliklar manbai, ularni tarqalish yoʻllari va sabablari. Sogʻliqni saqlash tizimidagi islohotlar. Yuqumli kasalliklarni oldini olishda Respublikada olib borilayotgan ishlar. Koʻkrak yoshidagi bolalarni immunizatsiya bilan qamrab olish tadbirlarini oʻtkazish. Xavfli guruhlarga mansub kontingentlarni immunizatsiya bilan qamrab olish tadbirlarini oʻtkazish. Boshqariluvchi yuqumli kasalliklar va immunizatsiya dasturi. Epidemiyaga qarshi tadbirlar oʻtkazish, aholi oʻrtasida immunizatsiya ishlarini tashkil etish. Emlash jadvaliga asosan yangi tugʻilgan chaqaloqlarni patronaji. Emlash jadvaliga asosan yangi tugʻilgan chaqaloqlarni oʻz vaqtida patronaj qilish va emlash jadvaliga amal qilishning ahamiyati. Emlash ishlari yuzasidan hisobotni olib borish. (063/u va 064/u shakllarini taqqoslash) Emlashdan keyingi asorat va nojoʻya taʼsirlarini aniqlash maqsadida patronajning ahamiyati. Vaktsinalarni va xavfsiz inʼyektsiyani taʼminlash uchun materiallarni saqlash qoidalari. Immunizatsiya dasturi ehtiyojlari uchun vaktsinalar va inʼyektsiyalar xavfsizligi uchun uskunalarning kerakli miqdorini aniqlash usullari. Vaktsinalar, inʼyektsiyalar miqdorini aniqlash, almashtirish, boshqarish va monitoring tizimini amalga oshirish.

2.2.Modul: Aholi bilan toʻgʻri va ishonchli aloqalarni oʻrnatish.

Aholi orasida emlash masalalarini joriy etishda shaxslararo muloqotning ahamiyati. Oʻzbekiston Respublikasida emlash jarayonida ishlatiladigan sanitariya meʼyorlari, koidalari va gigiyenik normativlari. San Q va M №0239-07/4 ning mazmun-mohiyatini oʻrganish. Aholi bilan hamkorlik masalalari boʻyicha axborot - tashviqot kompaniyalarini tashkillashtirish. Vaktsina profilaktika ishiga mahalliy aholini jalb etish ustidan monitoring kontseptsiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 37-sonli buyrugʻining mazmun-mohiyati. Aholining immunizatsiyaga boʻlgan ehtiyojlarini aniqlash. Aholi oʻrtasida zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlar. Hayvonlardan jarohat olgan fuqarolarga antirobik yordam koʻrsatish. Immunizatsiya va uning monitoringini aholi bilan hamkorlikda amalga oshirish. Vaktsinalar toʻgʻrisida umumiy tushuncha. Rejali ravishda emlash va uning ahamiyati. Vaktsinalarni emlashga tayyorlash, saqlash. Emlash muddatlari. Profilaktik emlash jadvali. Majburiy, epidemiyaga qarshi shoshilinch emlashga moneʼliklar. Emlash jarayonida ishlatiladigan sanitariya qoidalari va meʼyorlari. Yuqumli kasalliklarda immunoprofilaktika oʻtkazish va amaliyotda qoʻllash.

2.3.Modul: Vaktsinalarni saqlash yoki yuborish, qoʻllash, qoʻllashga tayorlash jarayonida yuzaga keladigan xatoliklar. Vaktsinalarni tarqatish va hisobdan chiqarish.

Immunizatsiya xavfsizligi. Vaktsinalar xavfsizligi va sifati. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 2015 yil 26 yanvardagi 36-sonli “Respublikada yuqumli kasalliklarning immunoprofilaktikasini tashkil qilib oʻtkazish toʻgʻrisidagi” buyrugʻining mazmun-mohiyati. Vaktsinalar sifati va xavfsizligiga doir masalalar mohiyati. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining 148-sonli 2006 yil 11 apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasida vaktsinalarni saqlovchi omborxonalarda JSST va YuNISEFning standart ishchi muolajalarini tadbiq etish va vaktsinalarni samarali boshqaruvi haqida”

buyrug`ining mazmun-mohiyati. Immunizatsiya xavfsizligi tamoyillariga amal qilish. Tirik zaiflashtirilgan va o`ldirilgan vaktsinalarni saqlash, tarqatish va hisobdan chiqarish. Sovuqlik zanjirining xavfsiz amaliyotiga rioya etishning ahamiyati. Erituvchilarni xavfsiz tamoyillarini qo`llash. Ko`p dozada vaktsinalarni saqlovchi flakonlarni saqlash qoidalari. Flakon termoindikatorlarining (FTI) holatini tekshirish va ularga rangi o`zgarishi jadalligining turli darajasini tahlil etish. Emlashga ko`rsatma va mone`liklar(haqiqiy va soxta). In`yektsiya xavfsizligi va chiqindilarni zararsizlantirish. Xavfsiz in`yektsiya uchun uskunalarni tanlashning muhimligi. Chiqindilarni to`plash va tashishni tashkillashtirish. Chiqindilarni xavfsiz to`plash va olib chiqib ketish. Xavfsiz in`yektsiya va chiqindilarni xavfsiz bartaraf etish uchun zarur uskunalarga bo`lgan talabni hisoboti. Postvaktsinal noxush ko`rinishlar. Immunizatsiyadan keyingi jiddiy noxush ko`rinishlar paydo bo`lishiga o`z vaqtida va malakali yondoshuvni ta`minlash. Immunizatsiyadan keyingi noxush ko`rinishlar ustidan epedemiologik nazorat.

2.4.Modul: Immunizatsiya jarayonini tahlil qilish va kuzatish.

Immunizatsiya tizimi va ko`rsatkichlari. Ma`lumotlarni yig`ish tamoyillari.

Ma`lumotlarni to`plash va ishlov berish. Immunizatsiya dasturining monitoringi. Tibbiy muassasalar bosqichida tibbiy xujjatlar asosida ma`lumotlarni to`plash. (Emlashni qayd etish jurnali, emlash kartalari/emlash pasportlari, emlash kartotekasi, vaktsinalar va xavfsiz emlash uchun materiallar mavjudligining hisobini yuritish jurnali, bemorlarni qayt etish jurnali.) Ma`lumotlarni tahlil etish va aks ettirish, choralar ko`rish.Teskari aloqa va bosqichlar uchun hisobotlar. Ma`lumotlarga ishlov berish. Immunizatsiya bilan qamrab olish monitoringining/immunizatsiya tugallanmaganligi grafigi. Gistogrammalar. Choraklik ish ko`rsatkichlarini taqqoslash, muammolarni o`rganish. Choralar ko`rilgunicha qadar muammolarni o`rganish. Xatti xarakterlar rejasini tuzish. Quyi bosqichdagi tibbiyot xodimi bilan teskari aloqa. Teskari aloqani usullari va davriyligi. Aholi bilan teskari aloqa. Yuqori bosqich uchun hisobot. Tuman yoki viloyat bosqichida ma`lumotlarni to`plash. (oylik hisobot, kuratorlik tashriflari, boshqa hisobotlar, hisobotlarni o`z vaqtidaligi va to`liqligi ustidan monitoringi.

2.5.Modul: Epidemiologik nazoratni tashkillashtirish va monitoringi. Epidemiologik nazorat turlari.

Epidemiologik nazorat. Nazorat, eliminatsiya va likvidatsiya. Epidemiologik nazoratning poydevor kontseptsiyalari. Epidemiologik nazorat turlari va ularni qo`llash. Rejali(passiv), dozor, faol epidemiologik nazorat. Emlash yo`li bilan boshqariladigan kasalliklar ustidan epidemiologik nazorat tizimini yaratish. Epidemiologi nazoratni tashkillashtirish va monitoringi. Passiv, dozor, faol epidemiologik nazoratni tashkillashtirish. Epidemiologik nazorat tizimi uchun axborot to`plash. Epidemiologik nazorat sifatini monitoringi. Epidemiologik nazorat bo`yicha hisobotni shakllantirish bosqichlari, tahlil o`tkazish va teskari aloqani ta`minlash. Epidemiologik nazorat tizimini tashkillashtirish jarayonida muammolarni hal etish. Muammolarga tashxis qo`yish, ularni hal etishning muqobil yo`llarini taklif etish. OITS etiologiyasi, klinikasi, profilaktikasi. O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining "O`zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasini oldini olish chora- tadbirlari va tibbiy yordamni tashkil etishni yanada

takomillashtirish to'g'risida" gi № 111 sonli 19-may 2023 yil chikarilgan buyrug'i mazmun mohiyati. OITS aniqlangan o'choq manbalarida olib boriladigan ishlar va kasallik yuqishini oldini olishga qaratilgan chora- tadbirlar. DPMLarda OIVni shifoxona ichki infeksiyasi tarzida tarqalishini oldini olish bo'yicha olib boriladigan chora- tadbirlar.

2.6. Modul: Har bir xududni qamrab olish va Etkazib olish strategiyalari asosida immunizatsiya xizmatini tadbiq etish.

Tuman va davolash profilaktika muassasasi miqyosida imkoniyatlarni kuchaytirish vazifasi maqsadlari. "Har bir xududni qamrab olish" strategiyasining mohiyati. Har bir xududni qamrab olish strategiyasining "Beshta ishchi komponenti bayoni". Har bir xududni qamrab olish" strategiyasining 6 ta instrumentidan foydalanish. "Etkazib olish" strategiyasining mohiyati. Tibbiyot muassasasi uchun immunizatsiya rejasini tuzish. Miqdoriy tahlil. Xaritalarni tayyorlash. taftish qilish. Yetib borish murakkab va muammoli hududlar uchun o'ziga xos/ maxsus tadbirlarni belgilash. Emlash strategiyasini o'tkazish (tibbiy muassasaga qabul) rejasini tuzish.

2.7.Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda b'firinchi yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha.Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlali.Tibbiy saralash va triaj asoslari.Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari.Qon ketishni to'xtatish usullari.Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish.Elekt jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar,uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish.Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish.Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4.DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O`quv bazalari:

Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi va uning filiali.

Davolash profilaktika muassasalari o`quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari o`quv bazalari.

4.2. Mashg`ulotlarni o`tkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o`tiladigan o`quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to`plami bo`lgan rrt ko`rinishli ma`ruzalar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko`nikmalarni mustahkamlash trening o`quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko`rgazma va qo`llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI:

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 5-sentyabrdagi "Davlat tibbiy sug'urta mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 311-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "Davolash profilaktika muassasalari uchun milliy klinik protokollarni tasdiqlash va tibbiyot amaliyotiga joriy etish to'g'risida" 2024-yil 14-iyundagi 195-son buyrug'i.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.12.2018 yil PQ 4063-sonli "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni
5. № 111 sonli 19-may 2023 yil O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasini oldini olish chora-tadbirlari va tibbiy yordamni tashkil etishni yanada takomillashtirish to'g'risida"
6. № 37 - 23.01.2015 Respublikada aholi o'rtasida o'ta xavfli zooantroponoz yuqumli kasalliklarga qarshi olib borilayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida.
7. № 542 -27.08.2018. Respublikada virusli gepatitlar tashhisoti, davosi va profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish to'g'risida.
8. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil

4.3.2.Asosiy adabiyotlar:

- 1.Jahon Sog'liqni saqlash Tashkilotining " Xavfsiz immunizatsiya" bo'yicha dasturi.
- 2.Gadayev A. Alimova M.X. Salixadjayeva Umumiy amaliyot hamshiralari uchun amaliy ko'nikmalar to'plami, Toshkent, 2011.
- 3.Umirov S.E. "IMMUNIZATSIYA" JSSTning "Vaktsinalar yordamida boshqariluvchi yuqumli kasalliklar va immunizatsiya" dasturi bo'yicha tibbiyot xodimlari va pedagoglar uchun qo'llanma, Toshkent – 2014
4. "Yuqumli kasalliklarda hamshiralik ishi" – 2016 y. (YuNISEF)
5. "Havfsiz immunizatsiya" dasturi bo'yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo'llanma-2014y. (YuNISEF)
6. Chij A.G. "Manipulyatsii v sestrinskom dele" 2009 y. -318 s.
7. Obuxovets T.P." Osnovi sestrinskogo dela."2015-533s.
- 8.«O'zbekiston Respublikasida yuqumli kasalliklarning immunoprofilaktikasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi 0239-07 -4- sonli SanQvaM.
9. K.N.Bobobekova. Davolash profilaktika muassalari emlash xonalari hamshiralari uchun uslubiy qo'llanma. Toshkent-2011
10. Barikina N.V., Kabaruxin A.B. "Prakticheskoye rukovodstvo po

travmatologii dlya feldsherov”. Rostov- na Donu, Feniks, 2019god.

11. “Infektsionnyye bolezni s kursom VICH infektsii i epidemiologii”

A.K. Belousova, V.N.Dunaytseva, Feniks – 2007

12. “Aholi orasida emlash masalalarini joriy etishda shaxslararo muloqotning ahamiyati” tibbiyot xodimlari va tibbiy ta’lim muassasalari uchun qo’llanma-2022y. (YuNISEF)

13. “Bexatar immunizatsiya” dasturi buyicha pedagoglar uchun qo’llanma. (YuNISEF)

Qo`shimcha adabiyotlar:

1. V.Ye.Avakov O.V. Churilova A.M. Sharipov “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.
2. Yu.Allayorov Yu.Tojiboyev “Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.” Tashkent-2012
3. D.M.Sabirov, A.Z.Gazizov “Birinchi tibbiy yordam” Toshkent-2017yil.
4. Lichyov V.G.,Karmanov V.K. «Pervichnaya dovrachebnaya meditsinskaya pomosh.» 2015y.
5. S.V. Dimichev “ Pervaya pomosh pri travmax i zabolevaniyax” Moskva-2011
6. V.P. Mitrofanenko,I.V.Alabin “Osnovi potologii” Moskva-2011god..
7. M.S. Krivenya “Osnovi anesteziologii i reanimatologii” 2009y.
8. A.A. Koshelyov “Meditsina katastrof” Sankt-Peterburg-2006

4.3.3 Internet resurslari:

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.ziyonet.uz/>

<http://www.pedagog.uz>

<http://www.tma.uz>

[http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar,o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.

